



ADABIYOT AYRIM TURLARI TAHRIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Tashmuxeimedova Latofat
Ismatovna, f.f.n, prof. v.b.**

Annotatsiya. Ushbu maqolada noshirlik, nashriyot ishlari, tahrir, tahrirning turlari, adabiyot ayrim turlarining o'ziga xos jihatlari, asarning sifatli tahririda muharrirning tajribasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: noshirlik, noshir, tahrir, qo'lyozma, mantiq, muharrir, fakt, dalillar.

Аннотация. В данной статье было изучено издательство, издательское дело, редактирование, виды редактирования, особенности некоторых видов литературы, опыт редактора в качественном редактировании произведения.

Ключевые слова: издательство, издатель, редактирование, рукопись, логика, редактор, факт, аргумент.

Annotation. This article examined publishing, publishing venture, editing, types of editing, features of certain types of literature, and the editor's experience in high-quality editing of a work.

Key words: publishing establishment, publisher, editing, manuscript, logic, editor, fact, argument.

Respublikamizda noshirlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, sog'lom raqobatga asoslangan elektron va bosma kitoblar bozorini shakllantirishni bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda.

“Ana shunday ulkan ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni hal qilish, kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, o'zbek va dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalari internet tarmoqlariga joylashtirish va ularni targ'ib qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga yetkazish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida 2017-yilning 13-sentyabrida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risidagi qarorni imzolagan” [1]

O'zbekiston Respublikasida qator nashriyotlar faoliyat yuritmoqda. Nashriyot esa asarni buyurtmaga binoan chop etadi. Bu kabi jarayonga guvoh bo'lgan kishi, albatta, mana muharrirsiz ham kitob chiqar ekan-ku, deb o'ylashi mumkin. Ammo nashriyotga o'z asarini chop etish uchun olib kelgan barcha mualliflar ham uning to'liq xatodan xoli bo'lishiga erisha olmaydi. Muallif o'z asariga subyektiv yondashadi. Masalan, ter to'kib yozgan ba'zi jumllarining ortiqcha ekanini ko'ra olmaydi yoki ko'rib tursa ham





ularni olib tashlashga ko'zi qiymaydi. Shunday ekan, unga kezi kelganda, asarni ayamay qisqartiruvchi mutaxassis va uning xolis nazari kerak bo'ladi. Aksariyat nashriyotlarda bunday mutaxassisning yo'qligi ko'pincha ular nashr etuvchi kitoblar sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. Kitoblardagi imloviy, uslubiy xatoliklar, ba'zan esa hatto mantiqiy nomutanosibliklar nashr ustida muharrir mehnat qilmaganini bildirib turadi. Albatta, bu holat hamma nashriyotlarda ham uchramaydi. Aksariyat nashriyotlarda (asosan, davlat nashriyotlarida) asar tahriri ustida jiddiy ish olib boriladi.

A.Milchinning fikriga ko'ra, quyidagi bir necha holatlar bo'lmaganda muharrirning keragi bo'lmasligi mumkin edi: nashriyotga chop etiladigan asarlarni tanlash va nashr sifatiga javob beruvchi shaxs zarur. Taqrizchi – bu nashriyotga asar taqdirini hal etishda yordam beruvchi maslahatchi. U asarga bergan bahosi uchun jamiyat va nashriyot oldida ma'naviy mas'uliyatga ega, ammo uning chop etilishi va nashrning sifati uchun emas. Tanlovni o'z bo'yniga oluvchi noshir muharrir vazifasini ham bajaradi, ammo tashkiliy, iqtisodiy hamda boshqa masalalar bilan u o'zi istamagan holda bu vazifaga muallif taqdim etgan asar sohasidagi adabiyotlarni doimiy ko'rib chiquvchi mutaxassis kabi chuqur kirisha olmaydi. Muharrir vazifasini ham bajaruvchi noshir nashr sifati bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarni nazorat qila olmaydi.

Nashriyot, shuningdek, kitobning yaralishida qatnashuvchi barcha ishtirokchilar: muallif, bezovchi, o'qib tuzatuvchi, musahhih, badiiy va texnik tahrirchilarning ishini jamlovchi shaxsga muhtoj. Muharrir ularni boshqaradi, ularning faoliyatini nazorat qiladi, originalning nashr bosqichlarida qanday harakatlanayotganini kuzatib boradi. Kitobni yaratishda qatnashuvchilarning ishini jamlashsiz, yaxshi tashkil etilgan boshqaruvsiz nashriyot yuqori sifatli kitob yaratishi, ayniqsa, qisqa vaqtda, dargumon. Nashriyot bunday mutaxassissiz faoliyat yurita olmaydi, sababi, kitob mukammal, o'quvchi uchun foydalanishda qulay bo'lishi lozim. Uni yordamchi matnlar (muqaddima, mundarija, yordamchi ko'rsatkichlar, kolontitullar) bilan boyitish kerak. Ular o'quvchiga kitobni o'qishda ko'mak beradi. Ko'p hollarda uni ma'lumotnoma-izohlovchi matnlar (kirish, so'zboshi, sharhlar va eslatmalar, bibliografik ro'yxat) kabi kitobni tushunishga yordam beruvchi vositalar bilan to'ldirish lozim.

Qisqa qilib aytganda, nashriyotga nashr jarayonini boshqaruvchi rahbar kerak. Hatto professional tayyorgarlikka ega, taqrizchining fikrlariga asosan asarini mustaqil tuzata oladigan mualliflar ham muharrirning tanqidiga muhtoj bo'ladi. Shu ma'noda





nashriyotdagi tahrir jarayoni o'ta muhim hisoblanadi, asarning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Bugungi kunda mediamatnlarning o'ziga xos xususiyatlari: tili, uslubiyati, tarkibiy qismlari, janriy xususiyatlari, mediamatn yaratish va tahrir etish muammolari yuzasidan izlanishlar jurnalistika sohasida muhim ahamiyatga ega. Inson ongi, tafakkurini o'zgarishi, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar mediamatnlarning shakliga, mohiyatiga, ta'sir o'tkazadi. Demak, har bir davrning media tili va uslubi o'sha zamon tilining o'ziga xosligini aks ettiradi va shu jihatdan alohida o'rganishga ehtiyoj tug'iladi.

Adabiy tahrirning mohiyati, uning maqsadlari va vazifalari

O'zbek ma'rifatparvarlaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniy: Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir, degan so'zlari barchamizga yaxshi tanish. Kitob yaratish ham xuddi shu kabi muhim masaladir. Zero, yaxshi kitob bilan jamiyat taraqqiy topishi, yomon kitob bilan esa tanazzulga yuz tutishi mumkin. Shunday ekan, kitob yaratish g'oyat ehtiyotkorlik, katta e'tibor, bilim va malakani talab etadi. Bu jarayonda bo'lajak kitobni nashrga tayyorlash, xususan, tahrirdan o'tkazish bosqichining ahamiyati katta.

Bugungi kunda nashr jarayoni deyilganda, kitobshunoslik yo'nalishidagi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan, tizimli algoritmgaga ega bosma nashrni yaratish va nashr etish anglashiladi.

Zoir Tohirov o'zining "Nashr jarayoni asosiy bosqichlari" darsligida nashr jarayonini shartli ravishda to'rt bosqichga bo'ladi:

Birinchi bosqichda tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi, ya'ni muallif qo'lyozmani topshirgunga qadar mavzuli reja tuziladi. Bu bosqichda muharrir albatta mavzuli rejani tuzish va tasdiqlashda faol ishtirok etadi. U mavzu yuzasidan muallif bilan suhbatlashadi, muhokama yuritadi, bo'lajak kitob rejasi ustida ishlaydi. Muallif taklifiga ko'ra asar qismlari bilan tanishib chiqadi, ayrim muammolarni hal etish va kamchiliklarni to'g'rilashda muallifga ko'maklashadi.

Ikkinchi bosqich – tahrir bosqichi. Muallif qo'lyozmani nashriyotga taqdim etishidan to uni ishlab chiqarishga bo'lgan ishlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda kitob taqdirini belgilovchi qarorlar qabul qilinadi: qo'lyozmani nashrga tavsiya etish va yoki rad etish masalasi hal etiladi. Qo'lyozmani ichki va tashqi taqrizlash, shuningdek, qo'lyozmani nashrga tayyorlash amalga oshiriladi.





Uchinchi bosqich – ishlab chiqarish bosqichida, asosan, kitob yaratish ishlari – bosmaxonada amalga oshiriladigan texnikaviy ishlar bajariladi. Lekin bu ishlar muharrirning qat'iy kuzatuv va nazorati ostida bo'ladi. Zero, muharrir sifatli mahsulot chiqishi uchun nashriyotning eng masul xodimidir.

To'rtinchi bosqich – yakuniy bosqich, kitobni tarqatish va targ'ib qilishdan iborat bo'ladi [2].

Nashr jarayonida ushbu bosqichlarning barchasi muhim o'rin tutadi. Ularni bir-biridan ajratib yoki birini biridan ustun qo'yib bo'lmaydi. Sababi har bir bosqichda aholiga sifatli kitob mahsulotini yetkazib berishga qaratilgan muayyan ishlar majmuasi bajariladi. Mazkur qismda nashr jarayonining asosiy bosqichlaridan biri bo'lgan tahrir bosqichini va uning asar yaratilishida tutgan o'rni tahlil qilinadi.

Tahrir (arab. ozod qilish, tuzatish, muharrirlik qilish, yozish, asar yozish) – yozma ishni, asarni tuzatishlar kiritib yaxshilash, tuzatish demakdir [3].

Nashriyotga taqdim etilgan asar tasdiqdan o'tgach hamda asar muallifi va nashriyot o'rtasida shartnoma imzolanganach, muharrirning asar qo'lyozmasi ustida ishlash jarayoni boshlanadi. Bu jarayonda nafaqat asar tahriri amalga oshiriladi, balki uning tarkibiy qismlari – kitob apparati ustida ham ishlanadi.

Kitob apparati (lot. «apparatus» – ta'minot, qurilma) deganda kitobning asosiy matnini to'ldiruvchi va o'quvchiga kitobdagi ma'lumotni tushunishga yordam beruvchi materiallar tushuniladi. Kitob apparatiga annotatsiya, so'zboshi, muqaddima, bibliografiya, ko'rsatmalar, ilova, mundarija, nashr ma'lumotlari kiradi.

Har bir kitobning dastlabki sahifasidan unga yozilgan annotatsiya o'rin oladi. Annotatsiya kitob haqida qisqacha ma'lumot bo'lib, uni o'quvchiga tanishtirishga xizmat qiladi. Undan so'ng kitobga so'zboshi (so'zboshi kitoblarda turli nomlar bilan atalishi mumkin: kirish, muqaddima, muallifdan, muharrirdan, tahririyatdan, nashriyotdan yoki boshqa istalgan sarlavha ham tanlanishi mumkin) yoziladi. Kirish maqolalar bitta yoki bir nechta ham bo'lishi mumkin. Asarning asosiy qismi tugagach, unga so'ngso'z yoki asarni yaxshi tushunishga, olingan bilimlarni mustahkamlashga yordam beruvchi maqola yoziladi. Mundarija esa kitobning boshlang'ich sahifalarida ham, so'nggi sahifasida ham keltirilishi mumkin.

Apparat tuzilmasi nashr turiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, ommaviy nashrlarda apparat elementlari soni kam (masalan, annotatsiya, kirish, so'ngso'z, mundarija), ilmiy nashrlarda esa ko'proq (masalan, annotatsiya, kirish, eslatma,





glossariy, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, mundarija) bo'ladi. Misol uchun, Ozod Sharofiddinovning "Domlalar" (adabiy-badiiy nashr) asarida kitob apparati annotatsiya, Erkin A'zam tomonidan yozilgan "Fikrlab yashamoq saodati" nomli asarda kirish maqola, "To'plovchidan" nomli yakunlovchi maqola, mundarija va nashr ma'lumotlaridan iborat [4].

Marsel Brionning Menkim, sohibqiron – jahongir Temur (adabiy-badiiy nashr) asarining o'zbek tilidagi tarjimasida kitob apparati annotatsiya, Ulug'lashga loyiq inson, sarkarda va davlat arbobi haqida asar sarlavhali kirish maqola, mundarija va nashr ma'lumotlaridan tashkil topgan[5].

H. Abulqosimov va O. Hamroyev muallifligidagi "Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish" (ilmiy-ommabop asar) nomli o'quv qo'llanmada annotatsiya, kirish, asosiy tushuncha va atamalar, mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar, glossariy (izohli lug'at), foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, mundarija va nashr ma'lumotlarni o'zida jamlagan kitob apparati keltirilgan [6].

Kitob apparati nashriyotga qo'lyozma bilan birga tayyor holda topshirilishi yoki nashriyot tomonidan tuzilishi mumkin, ya'ni qo'lyozmada kitob apparati elementlari bo'lmasa, kirish maqola, so'ngso'z va boshqa shu kabi tarkibiy qismlar nashriyot tomonidan yozilishi yoki boshqa mutaxassisga buyurtma qilinishi mumkin.

Qo'lyozma bilan bog'liq yuqoridagi kabi tashkiliy ishlar hal etilgach, nashr jarayonining bevosita tahrir bosqichi boshlanadi. Xo'sh, nashr jarayonida asar tahririning ahamiyati qanday? Asarni tahrirlovchi muharrir bu jarayonda qanday o'rin tutadi? Arkadiy Milchin bu haqda shunday yozadi:

Vaqtı-vaqtı bilan shunday ovozlər eshitiladi:

– O'zi muharrir kerakmi? Bu kuch va mablag'ni ortiqcha sarflash emasmi?

Ba'zilar shunday savollarni bersa, ba'zilar ishonch bilan ta'kidlaydi:

– Yo'q, muharrir kerak emas. U foydadan ko'ra ko'proq zarar keltiradi.

Ko'pchilik mualliflar unga enaga kabi ishonib qolishgan va uning yordamiga ishonib, nashriyotga xom materiallar olib kelishadi. Mualliflar tayyorgarliksiz, professional adabiy va maxsus yordamga muhtoj bo'lgan davr esa o'tib ketdi.

– Ammo kimdir muallifning ishini baholashi, uning originali nashrga yaroqli-yaroqsizligini aniqlashi kerak, deya qarshi chiqadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimizda qator xususiy nashriyotlar faoliyat yuritmoqda. Ularning ba'zilarida muharrir vazifasini ham muallifning o'zi





bajaradi, ya'ni muallif o'z asari ustida o'zi ishlaydi, xatolarini o'zi tekshiradi va tuzatadi. Nashriyot esa asarni buyurtmaga binoan chop etadi. Bu kabi jarayonga guvoh bo'lgan kishi, albatta, Mana muharrirsiz ham kitob chiqar ekanku, deb o'ylashi mumkin. Ammo nashriyotga o'z asarini chop etish uchun olib kelgan barcha mualliflar ham uning to'liq xatodan holi bo'lishiga erisha olmaydi. Muallif o'z asariga subyektiv yondashadi. Masalan, ter to'kib yozgan ba'zi jumllarining ortiqcha ekanini ko'ra olmaydi yoki ko'rib tursa ham ularni olib tashlashga ko'zi qiymaydi. Shunday ekan, unga kezi kelganda, asarni ayamay qisqartiruvchi mutaxassis va uning xolis nazari kerak bo'ladi. Xususi nashriyotlarda bunday mutaxassisning yo'qligi ko'pincha ular nashr etuvchi kitoblar sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. Kitoblardagi imloviy, uslubiy xatoliklar, ba'zan esa hatto mantiqiy nomutanosibliklar nashr ustida muharrir mehnat qilmaganini bildirib turadi. Albatta, bu holat hamma nashriyotlarda ham uchramaydi. Aksariyat nashriyotlarda (asosan, davlat nashriyotlarida) asar tahriri ustida jiddiy ish olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori. <http://lex.uz/docs/3338600>.
2. Тоҳиров З.Т. Нашр жараёни асосий босқичлари. – Т.:Тафаккур бўстони, 2016.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. – М.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. 2006-2008. – Б. 182-188.
4. Шарофиддинов О. Домлалар. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: М.Шарафутдинова, Ш.Тўйчиева. –Т.: Маънавият, 2009.
5. Абулқосимов Ҳ, Ҳамроев О. Иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солиш. – Т.: Иқтисод-молия, 2014.
6. Мильчин А. Э. Методика редактирования текста. Изд.3-е, перераб. и доп. – М.: Логос, 2005. – С.15.
7. Anvarovna, Y. F. (2022). THE USE OF SYNONYMS IN THE POETRY OF ERKIN VAKHIDOV. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(3), 324-327.
8. Shukurova, G. SCIENTIFIC HERITAGE AND STYLISTIC ORIGINALITY OF THE CRITIC. heart, 1, 201.





9. Buranova, B. (2023). The Modulation and Generalization Method in the Process of Translation from Related Languages. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 10(6), 368-372.
10. Buranova, B. (2023). THE NOVEL “MA'SUMA” BY ISAJON SULTAN INCLUDES AUTOBIOGRAPHICAL ELEMENTS. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ* (pp. 170-171).
11. Buranova, B. (2019). ABOUT THE TURKMEN TRANSLATION OF STAR NIGHTS (THE ISSUES OF CHOOSING WORDS IN LITERARY TRANSLATION). *Theoretical & Applied Science*, (10), 734-737.
12. ТАШМУХАМЕДОВА, Л. И. (2019). PRINCIPLES OF TEXT WRITING BASED ABLULLA KADIRIY'S SCIENTIFIC INTERPRETATION. *Иностранные языки в Узбекистане*, (1), 81-86.

